



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

*VOL. 2 ISS: 5 (2025)*

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA MOLIYAVIY MEKANIZMLARNING ROLI: NAZARIYA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI</b> <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i>	4
2.	<b>GLOBALASHUV SHAROITIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLASHTIRISHNING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</b> <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	8
3.	<b>МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСОВОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА СТРАХОВОГО СЕКТОРА ПОСРЕДСТВОМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ</b> <i>Мухамедов Фарход Турсунбаевич, Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	11
4.	<b>POLYUTSIYA SUG'URTASI MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH MASALALARI</b> <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	14
5.	<b>ISLOM MOLIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI, AMAL QILISHI BILAN BOG'LIQ O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b> <i>Qo'ldoshev Jahongir Qamariddinovich</i>	17
6.	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY YONDASHUVLARI</b> <i>Ko'charov Xurshid Xurram o'g'li</i>	19
7.	<b>O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI</b> <i>Kalenov K.T.</i>	22

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



## GLOBALASHUV SHAROITIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLASHTIRISHNING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Nomozova Qumri Isoevna

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi professori v.b., (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu ishda iqtisodiy integratsiyaning turli darajalari — segment ichidagi, segmentlararo va sektorlararo integratsiya jarayonlarining mazmun-mohiyati, ularni vujudga keltiruvchi omillar hamda qo'shma biznes samaradorligiga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar tahlil qilingan. Iqtisodiy integratsiya tashabbuskorining asosiy maqsadi — ishtirokchi sub'ektlar faoliyatini yaqinlashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish ekanligi asoslab berilgan. Asoslar A va V turlariga — integratsiyagacha mavjud imkoniyatlar hamda qo'shma biznes jarayonida yuzaga keladigan yangi imkoniyatlarga ajratilib, ularning har biri integratsiya samaradorligini belgilaydigan omil sifatida yondashilgan.

Tadqiqotda raqamlashtirishning iqtisodiy integratsiya jarayonlariga ta'siri alohida ko'rib chiqilib, uning samaradorlikni oshiruvchi yoki, aksincha, biznes jarayonlarini murakkablashtiruvchi ikki tomonlama ta'siri nishon qilingan. Shuningdek, integratsiyaning segmentlararo va sektorlararo shakllari, tashabbuskor strategiyasi, biznes-model parametrlari hamda ishtirokchilar manfaatlarining muvofiqlashuvi ilmiy asosda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy integratsiya, globalashuv, raqobatbardoshlik, qo'shma biznes, samaradorlik, raqamlashtirish, integratsiya darajalari, segment ichidagi integratsiya, segmentlararo integratsiya, sektorlararo integratsiya, iqtisodiy sub'ektlar, iqtisodiy ustunlik, bozor raqobati, innovatsiya

**Abstract:** In this study, various levels of economic integration — intra-segment, inter-segment, and inter-sectoral integration processes — their essence, the factors that give rise to them, and the conditions influencing the effectiveness of joint business activities are analyzed. It is substantiated that the primary goal of the initiator of economic integration is to enhance competitiveness by bringing the activities of participating entities closer together.

The foundations are divided into two types, A and B — the opportunities available prior to integration and the new opportunities emerging during the joint business process — and each of these is approached as a factor determining the effectiveness of integration.

The research separately examines the impact of digitalization on economic integration processes, highlighting its dual effect: either increasing efficiency or, conversely, complicating business processes. In addition, the inter-segment and inter-sectoral forms of integration, the strategy of the initiator, the parameters of the business model, and the alignment of participants' interests are elucidated on a scientific basis.

The purpose of this article is to develop proposals and recommendations aimed at the formation and development of Islamic finance in Uzbekistan based on the study of best practices of countries with developed Islamic finance. At the same time, the article sheds light on the unique aspects of the dualistic financial system, after studying the world experience in this direction, offers and recommendations are developed for its implementation in national financial practice.

**Keywords:** Economic integration, globalization, competitiveness, joint business, efficiency, digitalization, levels of integration, intra-segment integration, inter-segment integration, inter-sectoral integration, economic entities, economic advantage, market competition, innovation

**Абстрактный:** В данной работе проанализированы различные уровни экономической интеграции — внутрисегментная, межсегментная и межсекторная интеграция, их сущность, факторы, обуславливающие их возникновение, а также условия, влияющие на эффективность совместного бизнеса. Обосновано, что главной целью инициатора экономической интеграции является повышение конкурентоспособности за счёт сближения деятельности участвующих субъектов. Основания типа А и В подразделены на имеющиеся до интеграции возможности и новые возможности, возникающие в процессе совместного бизнеса, при этом каждое из них рассматривается как фактор, определяющий эффективность интеграции.

В исследовании отдельно рассмотрено влияние цифровизации на процессы экономической интеграции, при этом отмечено её двустороннее воздействие — как повышающее эффективность, так и усложняющее бизнес-процессы. Кроме того, научно обоснованы межсегментные и межсекторные формы интеграции, стратегия инициатора, параметры бизнес-модели и согласование интересов участников.

Целью данной статьи является разработка предложений и рекомендаций, направленных на становление и развитие исламских финансов в Узбекистане на основе изучения передового опыта стран с развитыми исламскими финансами. При этом статья проливает свет на уникальные аспекты дуалистической финансовой системы, после изучения мирового опыта в этом направлении разрабатываются предложения и рекомендации по её внедрению в национальную финансовую практику.

**Ключевые слова:** Экономическая интеграция, глобализация, конкурентоспособность, совместный бизнес, эффективность, цифровизация, уровни интеграции, внутри-сегментная интеграция, межсегментная интеграция, межсекторная интеграция, экономические субъекты, экономическое преимущество, рыночная конкуренция, инновация

### Kirish (Introduction/Введение).

Har qanday iqtisodiy sub'ektning strategik maqsadi — faqat mavjud raqobatdagi o'z mavqeini saqlab qolish emas, balki uni doimiy ravishda mustahkamlash va kengaytirishdir. Shu bois, raqobatbardoshlikni ta'minlash va oshirishga qaratilgan zamonaviy usullarni qo'llash har bir iqtisodiy sub'ekt uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, globalashuv sharoitida iqtisodiy integratsiya, ya'ni turli iqtisodiy sub'ektlar faoliyatining yaqinlashuvi va uyg'unlashuvi raqobatbardoshlikni oshirishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiy integratsiya biznes samaradorligini oshirish va

ishtirokchilar faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan bo'lib, tashabbuskor sub'ekt uchun iqtisodiy ustunlik yaratishga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы).**

So'nggi o'n yilliklarda globalashuv jarayonlari dunyo iqtisodiyotidagi o'zaro bog'liqlik va hamkorlik darajasini keskin oshirdi. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya nafaqat savdo-sotiqni kengaytiradi, balki milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini ham kuchaytiradi. Shu bois, bu mavzuda jahon va mahalliy olimlar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan.

Globalashuv iqtisodiy integrasiya uchun tashqi muhit yaratib, kapital, mehnat va texnologiyalarning erkin harakatini ta'minlaydi (Stiglitz, 2002). Shuningdek, jahon savdo tashkiloti (WTO), Evropa Ittifoqi (EU), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) va boshqa integrasion tuzilmalar global raqobat sharoitida davlatlar hamkorligini institusionallashtirdi. Qator tadqiqotlar (Krugman [3], 1994; Dunning, 1998 [2]) integrasiya mamlakatlar uchun miqyos iqtisodiy va texnologiya almashinuvi imkoniyatlarini yaratishini ko'rsatgan. Masalan, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida integrasiya natijasida ichki bozordagi ishlab chiqarish samaradorligi oshgan, tovar sifatleri yaxshilangan va eksport hajmi kengaygan.

Iqtisodiy integrasiya tushunchasini ilk bor B. Balassa (Balassa, 1961) [1] tizimli ravishda tahlil qilgan bo'lib, u integrasiyaning besh bosqichini ajratgan: erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoq va to'liq iqtisodiy integrasiya. Uning ta'kidlashicha, integrasiya jarayoni milliy iqtisodiyotlarning raqobat ustunligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

M. Porterning (Porter, 1990) [4] "Millatlar raqobatbardoshligi nazariyasi"da ham xalqaro integrasiya milliy kompaniyalarni innovatsiyaga rag'batlantirish orqali raqobatbardoshlikni kuchaytiradi, deb ta'kidlanadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari misolida ham iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari (ECO, EAEU, CAREC) [5] orqali transport, energetika va savdo sohasidagi integrasiya milliy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilmoqda (UNESCAP, 2021) [6].

O'zbekiston Respublikasi keyingi yillarda global iqtisodiy tizimga faol integrasiya yo'lidan bormoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017–2024 yillarda mamlakat tashqi savdo aylanmasi ikki baravarga yaqin oshgan. Bu jarayon erkin iqtisodiy zonalar yaratilishi, EOII (Evrosiyo iqtisodiy ittifoqi) bilan hamkorlik va Markaziy Osiyo mintaqaviy aloqalarining kuchayishi bilan bog'liq [7]. Shuningdek, mahalliy olimlar — H.Xamidov (2020) [8], Sh.Rahmonov (2022) [9] va boshqalar — iqtisodiy integrasiya milliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlarga chiqish imkoniyatini berib, raqobat muhitini sog'lomlashtiradi, deb ta'kidlaydilar.

Rivojlangan yirik mamlakatlar — Angliya, Fransiya, Germaniya, Irlandiya, Shveysariya, Kanada va Yaponiya — iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik tashkiloti a'zolari AQSh investitsiyalarining asosiy qabul qiluvchilari bo'lib, bunga sabab faqat tarixiy aloqalargina emas, balki ulardagi qulay investision muhit, mehnat bozorida qulayliklar va yuqori yashash darajasi edi. Bundan tashqari ushbu mamlakatlardagi rivojlangan infratuzilma va keng marketing tizimi, tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar hamda innovatsion faollikning mavjudligi edi [10].

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, globalashuv va iqtisodiy integrasiya jarayonlari mamlakatlar raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylangan. Ular orqali milliy iqtisodiyotlar xalqaro bozorda o'z pozitsiyalarini mustahkamlaydi, innovatsion salohiyati oshadi va eksport salohiyati kengayadi. Shu sababli, O'zbekiston uchun ham integrasiya strategiyasini chuqurlashtirish raqobatbardosh iqtisodiy o'sishning muhim sharti hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования).** Ushbu tadqiqotning maqsadi globalashuv sharoitida xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy integrasiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish va turli mamlakatlarga mansub iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlashuvni yanada kuchaytirish va takomillashtirishning yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda empirik tahlil va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты).** Iqtisodiy integrasiya turli institusional va tarmoq darajalarida amalga oshishi mumkin:

1. Segment ichidagi integrasiya — bir sohaning bir xil segmentida faoliyat yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi yaqinlashuv bo'lib, ularning faoliyatidagi umumiylik va bir xil mahsulot turlaridan kelib chiqadi.

2. Segmentlararo integrasiya — bir sektor ichidagi turli segmentlar o'rtasidagi hamkorlik bo'lib, bu holda ishtirokchilar faoliyati o'xshash, ammo mahsulot va xizmatlar ko'lamini jihatidan farqlanadi.

3. Sektorlararo integrasiya — iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasidagi yaqinlashuv bo'lib, bu integrasiya yangi turdagi biznes-modellarni yaratish imkonini beradi.

Iqtisodiy integrasiyaning bir darajadan ikkinchisiga o'tishi, odatda, bozorda o'zaro raqobatning kuchayishi va mavjud samaradorlik zahiralarning tugab borishi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy integrasiya tashabbuskorining asosiy maqsadi — boshqa sub'ektlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma biznes orqali o'z raqobatbardoshligini oshirishdir. Bu maqsadga erishishda quyidagi asosiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- qo'shma biznesni yaratish uchun mavjud iqtisodiy va institusional sharoitlarning mavjudligi;
- ishtirokchi sub'ektlar faoliyatining yaqinlashuviga ijobiy ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarning mavjudligi;
- qo'shma faoliyatni amalga oshirishning samarali biznes-modeli.

Iqtisodiy integrasiyalashuvning shart-sharoitlari ishtirokchi sub'ektlarning faoliyat xususiyatlariga asoslanadi. Ushbu shartlar ikki guruhga bo'linadi:

- A guruh — ishtirokchilarning avvalgi faoliyatidan kelib chiqadigan, yaqinlashuvni rag'batlantiruvchi holatlar;
- B guruh — faqat qo'shma biznes doirasida paydo bo'ladigan, yangi iqtisodiy imkoniyatlar.

Bu shartlar faqat amaliy ravishda joriy etilgandagina samaradorlikni ta'minlaydi. Shu sababli, iqtisodiy integrasiya jarayonini faqat amalga oshirilgan va faol foydalanilayotgan holda real samarali, aks holda esa potensial samarali deb baholash mumkin.

Zamonaviy sharoitda iqtisodiy integrasiya jarayonlariga raqamlashtirish juda kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamlashtirish — bu ma'lumotlarni raqamli qayta ishlash va ulardan risklarni boshqarish hamda ish jarayonlarini optimallashtirishda foydalanishga asoslangan iqtisodiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u biznes samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

Ma'lumot har qanday iqtisodiy faoliyatning asosiy resursi ekanligini inobatga olsak, raqamlashtirish iqtisodiy integrasiyalashuvning barcha jihatlariga — uning sharoitlari, omillari va biznes-modellariga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Bunda raqamlashtirishning ta'siri ikki yo'nalishda namoyon bo'lishi mumkin:

- ijobiy holda — samaradorlik va raqobatbardoshlikning oshishi;
- salbiy holda — biznes jarayonlarining murakkablashishi natijasida samaradorlikning pasayishi.

Shu sababli, raqamlashtirish va iqtisodiy integrasiya o'zaro ta'sirini tahlil qilish, ularning o'zaro muvofiqligini ta'minlash va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish yo'nalishlarini aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Belgilangan iqtisodiy integrasiyalashuv darajasi doirasida qo'shma biznes yaratish va uning samaradorligini oshirish masalalari tahlilini amalga oshirish natijasida "belgilangan iqtisodiy integrasiyalashuv darajasi doirasida qo'shma biznes yaratish uchun asoslar" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berildi.

Iqtisodiy integrasiya asoslari — bu iqtisodiy integrasiya ishtirokchilari faoliyatining shunday xususiyatlaridirki, ular ishtirokchilar faoliyati yaqinlashuviga va qo'shma biznesni yuritishda yangi ijobiy imkoniyatlar ochilishiga xizmat qiladi. Ularning vujudga kelishiga qarab, asoslar ikki turga bo'linadi:

- A turidagi asoslar — bu iqtisodiy integrasiya ishtirokchilari faoliyatining qo'shma biznes tashkil etilgungacha bo'lgan xususiyatlarini bilan bog'liq bo'lib, ular faoliyat yaqinlashuviga yordam beradi va qo'shma biznesda ulardan foydalanish integrasiya tashabbuskorining raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishiga aylanadi;
- B turidagi asoslar — faqat qo'shma biznes doirasida paydo bo'lib, uni amalga oshirishda yangi ijobiy imkoniyatlarni ochadi va natijada qo'shma biznes tashabbuskorining raqobatbardoshligini oshiradi.

Agar A turidagi asoslar qo'shma biznes tashkil etilishidan oldingi iqtisodiy faoliyatning xususiyatlariga asoslangan bo'lsa, B turidagilar qo'shma biznes jarayonida vujudga keladi. Asoslarni shunday turlarga ajratishning maqsadi — iqtisodiy integratsiyaning turli variantlarini samarali amalga oshirish uchun ularni anglash va to'g'ri qo'llash orqali qo'shma biznes samaradorligini va natijada, tashabbuskorning raqobatbardoshligini oshirishdir.

Har ikki turdagi asoslarning samarali amalga oshirilishi va ulardan ijobiy imkoniyatlarni to'liq chiqarib olish darajasi qo'shma biznesning muvaffaqiyatliliigi va samaradorligiga, shuningdek, tashabbuskorning raqobatbardoshligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Biroq quyidagini qayd etish zarur: agar asoslar mavjud bo'lib, lekin amalga oshirilmagan bo'lsa, ularni samaradorlikni oshirishning real yo'nalishi sifatida qarab bo'lmaydi. Shu sababli, bunday asoslardan foydalanilmagan iqtisodiy integratsiyani faqat potensial jihatdan samarali deb baholash mumkin. Bu qoidalar ichki segment, segmentlararo va sektorlararo iqtisodiy integratsiya jarayonlariga ham taalluqlidir. Asoslarning amalga qo'llanilishi va ro'yobga chiqarilishigina tashabbuskorning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy integratsiyaga ta'sir etuvchi barcha omillar ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ular tashabbuskorning mustaqil faoliyatiga ham, qo'shma biznesga ham ta'sir qiladi. Ularning mavjudligi va amalga oshirilishi integratsiya jarayoniga yoki yordam berishi, yoki aksincha, uni qiyinlashtirishi mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy integratsiyaning barcha darajasida uni ta'minlovchi asosiy omillar quyidagilar:

- raqobatning kuchayishi;
- integratsiya tashabbuskorining o'z raqobatbardoshligi va faoliyati samaradorligini oshirishga intilishi.

Shu bilan birga, iqtisodiy integratsiyaning har bir darajasiga xos maxsus omillar ham mavjud. Masalan, segmentlararo integratsiya uchun bu — turli segmentlar faoliyatini tartibga solish tartiblarining o'xshashligi bo'lishi mumkin (masalan, bank va sug'urta segmentlaridagi qoidalarining yaqinligi).

Sektorlararo integratsiya uchun esa asosiy qo'shimcha va muhim omil — raqamlashtirish bo'lib, u iqtisodiyotning turli sektorlari faoliyati yaqinlashuvini tezlashtiradi.

Shunday qilib, raqobatbardoshlikni oshirish uchun omillarni boshqarish shunday yo'l bilan amalga oshirilishi kerakki, u qo'shma biznes samaradorligini oshirishga xizmat qilsin.

Qo'shma biznesni amalga oshirishning biznes-modeli integratsiya darajasining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, faoliyat yaqinlashuviga yordam beruvchi omillar va asoslar ta'siri bilan belgilanadi. Biznes-modellar xilma-xil bo'lgani sababli, ularning parametrlari turlicha bo'lishi mumkin. Biroq har qanday modelda integratsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi parametrlar mavjud bo'ladi va ularga raqamlashtirish ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3-bosqich. Iqtisodiy integratsiya darajasi doirasidagi har qanday biznes-modelning asosiy parametrlarini aniqlash.

Asosiy parametrlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- qo'shma biznesni tashkil etish maqsadi;
- integratsiya tashabbuskori;

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Balassa, B. (1961). The Theory of Economic Integration. Homewood, IL: Richard D. Irwin.
2. Dunning, J. H. (1998). Globalization, Trade and Foreign Direct Investment. Oxford: Oxford University Press.
3. Krugman, P. (1994). Competitiveness: A Dangerous Obsession. Foreign Affairs, 73(2), 28–44.
4. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
5. Stiglitz, J. E. (2002). Globalization and Its Discontents. New York: W.W. Norton & Company.
6. UNESCAP (2021). Economic and Social Survey of Asia and the Pacific 2021. United Nations ESCAP.
7. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. (2017–2024). Ташқи савдо статистик тўпламлари. Тошкент.
8. Хамидов, Х. (2020). Иқтисодий интеграция ва миллий рақобатбардошлик. Тошкент: Иқтисодиёт нашриёти.
9. Раҳмонов, Ш. (2022). Марказий Осиёда минтақавий интеграция жараёнлари. Самарқанд: СамДУ нашриёти.
10. Қўлдошев, Қ. (2023). SUG'URTA FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN NAZORAT QILISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA BU BORADAGI CHET EL TAJRIBALARINI QO'LLASH MASALALARI . Страховой рынок Узбекистана, 1(2), 12–15. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/26>.

- tashabbuskor strategiyasi;
- integratsiyani amalga oshirish shakli va h.k.

Bu parametrlar ro'yxati ba'zan barcha modellar uchun bir xil bo'lishi, yoki turlicha bo'lishi mumkin. Ular mazmuni esa integratsiya darajasining xususiyatlariga bog'liq.

Qo'shma biznesni tashkil etish maqsadi iqtisodiy integratsiya darajasi bilan belgilanadi. Masalan, segmentlararo integratsiyada biznes-model odatda bir tashabbuskor (bir tomonlama integratsiya) yoki bir nechta tashabbuskorlar (ko'p tomonlama integratsiya) manfaatlariga yo'naltiriladi. Boshqa ishtirokchilarning manfaatlari tashabbuskor (lar) manfaatlariga bo'ysundiriladi.

Integratsiyaning shakli ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ikki ko'rinishda bo'ladi:

- ixtiyoriy shaklda — ishtirokchilar manfaatlari kelishiladi va rasmiylashtiriladi (masalan, hamkorlik shartnomalari orqali);
- agressiv shaklda — boshqa ishtirokchilarning manfaatlari qisman yoki umuman hisobga olinmasligi mumkin.

Sektorlararo iqtisodiy integratsiyada esa turli sektorlar ishtirokchilari tanlanar ekan, o'zaro manfaatlar moslashuvi tamoyili asos qilinadi.

Iqtisodiy integratsiya tashabbuskori — bu bir ishtirokchi (bir tomonlama) yoki bir nechta faol ishtirokchilar (ko'p tomonlama) bo'lishi mumkin. Segmentlararo integratsiyada tashabbuskor va boshqa segment sub'ektlari, sektorlararo integratsiyada esa turli sektor va segmentlar sub'ektlari ishtirok etadi.

Iqtisodiy integratsiyani amalga oshirish segmentlararo va sektorlararo shakllardan tashkil topgan bo'lib, segmentlararo integratsiya ixtiyoriy va agressiv shakllarda namoyon bo'ladi, sektorlararo integratsiya esa faqat ixtiyoriy shaklda qo'llaniladi.

Iqtisodiy integratsiya ishtirokchilarning maqsadlari tashabbuskor uchun o'z samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishdan iborat bo'lib, boshqa ishtirokchilar uchun o'z manfaatlarini amalga oshirish imkoniyati integratsiya shakliga bog'liq bo'ladi.

Tashabbuskor strategiyasi modifikatsiya qilingan mijozga yo'naltirilgan strategiyadir. Ya'ni, tashabbuskor mahsulot yoki xizmatlar doirasini kengaytiradi, boshqa ishtirokchilar mahsulotlarini integratsiya qiladi yoki yangi, konvergirangan mahsulotlar yaratadi. Bu mijoz ehtiyojlarini kengroq qondirishga xizmat qiladi.

Ishirokchilar maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatlari tashabbuskor uchun integratsiyaning samaradorligiga bog'liq bo'lib, boshqalar uchun segmentlararo integratsiyada shaklga (ixtiyoriy yoki agressiv) bog'liq, sektorlararo integratsiyada esa faqat o'zaro kelishuv asosida amalga oshiriladi.

#### Xulosa (Conclusion, Заключение).

Hozirgi zamon globallashtirish sharoitida iqtisodiy integratsiya davlatlararo tarzda namoyon bo'lib, zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirishning strategik mexanizmi sifatida yuz bermoqda. Ushbu jarayon alohida mamlakatlardagi sub'ektlar faoliyatini yaqinlashtirish, qo'shma biznes modellarini yaratish va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali yangi iqtisodiy sinergiyani ta'minlaydi. Shuningdek, raqamlashtirishning ta'sirini hisobga olgan holda, integratsiyaning turli darajalarini ilmiy asosda boshqarish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.